

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOZAROV SARDOR SOXIBJONOVICH

SUN'IY INTELLEKT DOIRASIDA HUQUQIY JAVOBGARLIK

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Bozarov Sardor Soxibjonovich

Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik3

Bozarov Sardor Sokhibjonovich

Legal liability in the framework of Artificial intelligence.....31

Бозаров Сардор Сохибжонович

Правовая ответственность в рамках искусственного интеллекта.....57

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....63

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOZAROV SARDOR SOXIBJONOVICH

SUN'IY INTELLEKT DOIRASIDA HUQUQIY JAVOBGARLIK

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Yu181-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Gulyamov Said Saidaxrarovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Samarxodjayev Botir Bilyalovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Aminjonova Matluba Axmedovna,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Xamroqulov Bahodir Masharifovich,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi davlat
Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti**


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 16-mart soat 10-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1119-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).


Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 28-fevralda tarqatildi.

(2023-yil 28-fevraldagi 25-raqamli reyestri bayonnomasi).




I.R. Rustambekov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor


D.Y. Xabibullayev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor


N.F. Imomov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raising
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori,
professor

KIRISH (yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI deb yuritiladi) sohasidagi ishlanmalar, ularga nisbatan intellektual mulk huquqi va mazkur mahsulotlarning huquqiy tabiati, xususan, yuridik javobgarligi masalalari kun sayin jiddiy muammoga aylanib bormoqda.

Jumladan, 2015- va 2018-yilda SI negizidagi avtopilot boshqaruvidagi "Tesla" avtomashinasi avtohalokatni sodir etishi insonlarning hayotdan ko'z yumishiga olib keldi¹, "Google" haydovchisiz boshqariladigan avtomashina 11 marotaba avtohalokatni sodir etib, uning oqibatida atrofdagilarga jiddiy zarar yetkazilgan². Shuningdek, 2015-yilda SI manipulyator roboti harakati "Volkswagen" avtomobil zavodida ishchi o'limiga sabab bo'ldi³, bemorlarga dori vositalarini o'z vaqtida qabul qilish muolajalarini kuzatib boruvchi robot hamshiraning xatosi bemorning hayotdan ko'z yumishiga olib keldi⁴. Mazkur voqealar amalda SI sohasidagi huquqiy javobgarlik masalalari tezkor sur'atlar bilan odimlab borayotgan texnologik inqilobning shiddatiga mos kela olmay qolayotgani tufayli SI sohasidagi mahsulotlar va ularga bog'liq zamonaviy texnologiyalar (aqlli shahar, smart-kontrakt, raqamli iqtisod, blokcheyn va h.k.) ishlab chiqarilishi barobarida yuzaga kelayotgan chaqiriqlar, munosabatlar an'anaviy huquq normalari va institutlarni to'liq qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Jahonda SI fenomeni, uning normativ tartiboti, SI texnologiyalari va dasturlarini yaratish, ishlab chiqish, dasturlash, muomalaga kiritish, qo'llash, aqlli o'rganish tizimlari, smart-kontrakt va boshqa shu kabi SI mahsulotlari huquqiy tabiati, o'ziga xos jihatlari, yuridik javobgarligi masalalarini tadqiq etish, shuningdek, SIning huquqiy maqomi, huquq subyektiligi, elektron shaxs konsepsiyasining huquqiy istiqbollari o'rganish yuzasidan ilmiy tahlillarni amalga oshirish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish borasida dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Xususan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da sun'iy intellektni mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2023–2030-yillarda rivojlantirish Strategiyasi"ni ishlab chiqish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi⁵, ular respublikada raqamlashtirish jarayonlarini yanada faollashtirish zarurligini qayd etmoqda. Bundan tashqari, Yangi O'zbekiston Strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan,

¹ Tesla driver in fatal 'Autopilot' crash got numerous warnings: U.S. government // Reuters. URL: <https://www.reuters.com/article/us-tesla-crash-idUSKBN19A2XC> (дата обращения: 10.05.2020).

² Dan Moren, People Keep Crashing Into Google's Self Driving Cars (2015), <<http://www.popsci.com/people-keep-crashing-googles-self-driving-cars>> accessed 13 June 2015.

³ Robot Kills worker at Volkswagen plant in Germany // The Guardian. URL: <https://www.theguardian.com/world/2015/jul/02/robot-kills-worker-at-volkswagenplant-in-germany> (дата обращения: 10.05.2020).

⁴ Kseniya Charova, Cameron Schaeffer, Lucas Garron, Robotic Nurses (2011). <<http://cs.stanford.edu/people/eroberts/cs181/projects/2010-11/ComputersMakingDecisions/robotic-nurses/index.html>> accessed 13 June 2015.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.

sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, ijro ishini yuritish tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur mexanizmlar ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda amaldagi sud-huquq sohasidagi qonunchilik asoslarini sun'iy intellekt tizimlarini bosqichma-bosqich singdirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiq qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori, 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son qarori, 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6198-son Farmoni, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni, 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Sun'iy intellekt doirasida javobgarlik masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari: Stenford universiteti, Yale universiteti, Harvard universiteti, Kaliforniya universiteti, Konnektikut universiteti, Hanter kolleji, Mariland universiteti, Boston kolleji, Chikago universiteti, Kolumbiya biznes maktabi, Jon Hopkins universiteti. Buyuk Britaniya: Oksford universiteti, Kembrij universiteti. Yevropa Ittifoqi: Tilburg universiteti, Lyoven Katolik universiteti, Edinburg universiteti, Gyote universiteti Syurix universiteti (Shveysariya),. Rossiya Federatsiyasi: Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti,

¹Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.yale.edu>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>; <https://www.ucdavis.edu/>; <https://uconn.edu/>; <https://hunter.cuny.edu/>; <https://www.umd.edu/>; <https://www.nyu.edu/>; <https://www.ox.ac.uk>; <https://www.cam.ac.uk>; <https://www.bc.edu>; <https://www.harvard.edu>; <https://www.uchicago.edu>; <https://home.gsb.columbia.edu>; <https://www.jhu.edu>; <https://www.tilburguniversity.edu>; <https://www.kuleuven.be/kuleuven>; <https://www.ed.ac.uk>; <https://www.uzh.ch/de.html> <https://www.uni-frankfurt.de>; <https://www.msu.ru/>; <https://msal.ru/>; <http://igpran.ru/>; <https://www.tsu.ru/>; <https://gubkin.ru/>; <https://www.rea.ru/ru/abiturientu/Pages/abiturientu.aspx>; <https://sgmu.ru>.

Tomsk davlat universiteti, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va oliy ta'lim hamda boshqa ilmiy tadqiqot muassasalarida olib borilmoqda.

Jahonda sun'iy intellekt doirasida javobgarlik masalalariga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan: sun'iy intellekt tushunchasiga nisbatan evristik va kognitiv yondashuvlar asoslantirilgan. SI huquqiy asoslari yanada takomillashtirilgan (Stenford universiteti, Yale universiteti, Kaliforniya universiteti, Konnektikut universiteti, Hanter kolleji, Mariland universiteti). Inson huquqlarini ta'minlash maqsadida, SI qo'llanishi sohalarini yanada kengaytirish, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarning moliyaviy resurslari hisobiga SI ilmiy sohasiga grantlarni jalb etishning konseptual asoslari taklif etilgan (Oksford universiteti, Kembrij universiteti). SI huquqiy javobgarligining ilmiy va nazariy asoslari, fundamental doktrina nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan (Boston kolleji). SI rivojlanishi evolyutsiyasini zamonaviy bibliometrik analizlar orqali aniqlash va bugungi kunda SI qo'llanishi holati, SIDan foydalanishni yanada takomillashtirish bo'yicha ilg'or tijorat kompaniyalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha zarur choralar ko'rilishi taklif etilgan (Tilburg University, Netherlands, University of Murcia, Chang'an University). SI samarali tizimlarini tashkil etishda, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi hisoblanmish SI javobgarligini zaif va kuchli SI negizida joriy qilish taklif etilgan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti). Fuqarolarning hayotini yengillashtirishda SI mexanizmlarini davlat xizmati tizimiga joriy etish asoslari ishlab chiqilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi).

Dunyoda SI huquqiy muammolari va ularning yechimini topishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, nodavlat va xususiy fondlarni tashkil etish orqali SI tizimini qulaylashtirish, ko'p darajali javobgarlikka ega (solidar, subsidiar) SI tizimlarini joriy etish, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishda SI axborot bazalaridan foydalanish, SI qo'llanishi qonuniy asoslarini takomillashtirish, SINi qo'llashda yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilash, turli sohalarda SI qo'llanishi huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xalqaro SI standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuning ayrim jihatlari H.R. Rahmonqulov, S.S. Gulyamov, O. Oqyulov, Sh.N. Ro'zinazarov, I.R. Rustambekov, N.F. Imomov, A. Saidov, D.Y. Xabibullayev, O'P. Xolmirzayev, O.Sh. Pirmatovlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Xorijiy mualliflardan Alex M. Andrew, George F. Luger, Daniel Castro va Joshua New, Joost N. Kok, Egbert J. W. Boers, Walter A. Kusters, Peter van der Putten, Robert S. Engelmores, Nils J. Nilsson, Michael Guihot, Anne F. Matthew, Nicolas Suzor, Raymond Kurzweil, Elaine Rich, Kevin Knight, Shivashankar V. Nair, Richard Bellman, James R. Slagle, Stuart J. Russell, Peter Norvig, Edwina L. Rissland, Kevin D. Ashley, Ronald Prescott Loui, Avneet Pannu, Ronal Chandra, Yoga Prihastomo, Andrew Haskins, Surabhi Arora, Uttara Nilawar, Pei Wang, Earl B. Hunt, Patrick Henry Winston, Nick Bostrom, Irving John Good kabi tadqiqotchilarni ko'rsatib o'tish mumkin¹.

¹Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

Biroq mamlakatimizda sun'iy intellektning turli sohalarda qo'llanishi va uning yuridik javobgarligi alohida monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridagi O'zbekiston Respublikasida kiber huquqining shakllanishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt tushunchasi yuridik mohiyati va tabiati, uning turli sohalarda qo'llanishning huquqiy shakllari va javobgarligi masalalarini kompleks tahlil qilish, sohaga oid nazariyani rivojlantirish va amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan taklif, tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

sun'iy intellektning rivojlanish evolyutsiyasi va istiqbollari, sun'iy intellekt tushunchasini aniqlashda mavjud konseptual yondashuvlarni tahlil qilish;

sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish zaruratining nazariy-huquqiy shartlarini tadqiq etish, sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniqlashga nisbatan doktrinal va qonunchilikdagi yondashuvlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

sun'iy intellektning huquq subyektliligi muammoli jihatlarini, "Elektron shaxs" tushunchasiga nisbatan mavjud yondashuvlarni tahlil qilish;

sun'iy intellekt javobgarligining huquqiy tabiatini o'rganish;

sun'iy intellekt tizimining o'z harakatlari (yoki harakatsizligi) uchun bevosita javobgarligi modelini tahlil qilish;

turli sohalarda qo'llanadigan sun'iy intellekt tizimlarining bilvosita javobgarligini tahlil qilish;

sun'iy intellektni ishlab chiqarish va qo'llash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

sun'iy intellektni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan alohida hujjatlarni (axloq kodeksi, alohida qonun va sun'iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasini) ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi SI imkoniyatlaridan ijtimoiy turmushning turli sohasida foydalanish, uning faoliyati yuzasidan kelib chiqadigan oqibatlar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini SI tomonidan davlat, jamiyat, fuqaro boshqa subyektlarga yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy masalalarini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotidagi tajribalar, SI faoliyatini tashkil etishga doir xalqaro standartlar, shuningdek, o'rganilayotgan mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar, konseptual yondashuvlar va g'oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mantiqiy, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim ostida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish,

dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim tushunilishi asoslantirilgan;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan tartibda maxsus rejim ishtirokchilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan va maxsus rejimning ishchi organi tomonidan yuritiladigan maxsus rejim ishtirokchilarining yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs, shu jumladan, ilmiy tashkilot tan olinishi asoslantirilgan;

maxsus rejim ishtirokchilari maqomini olishga talabgorlar mazkur maxsus rejim ishtirokchisi maqomini olishga ariza bergan yuridik shaxslar, shu jumladan, ilmiy tashkilotlar hisoblanishi asoslantirilgan;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim ishtirokchi tashkilotini maxsus rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish asoslari sifatida maxsus rejim ishtirokchisi maqomini olish uchun taqdim qilingan ma'lumot va hujjatlarda keyinchalik ularning to'liqligi, xolisligi va to'g'riligi bo'yicha asosli kamchiliklar aniqlanishi, maxsus rejim ishtirokchisining faoliyati loyiha doirasida ko'rsatilgan faoliyat turlariga muvofiq emasligi hamda ishchi organ bilan tuzilgan maxsus rejim ishtirokchisining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasligi asoslantirilgan;

identifikatsiya tizimi jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning rasmiy ma'lumotlar manbai va u orqali olingan ma'lumotlar davlat organlari, banklar, moliya va boshqa xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni masofaviy identifikatsiya (autentifikatsiya) qilishning asosi hisoblanishi asoslantirilgan;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim tushunchasi asoslantirilgan

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sun'iy intellekt tushunchasiga oid mavjud konseptual yondashuvlarni tahlil qilish negizida mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi;

Fuqarolik kodeksiga sun'iy intellekt ishtirokida ijtimoiy munosabatlarda yuridik javobgarlikni belgilash yuzasidan qoidalarni kiritish zarurati asoslantirildi;

sun'iy intellekt qo'llanadigan sohalarda uning ishtirokida yuzaga keladigan atrof-muhit, inson, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazish holatlarida yuzaga keladigan javobgarlikning nazariy va uslubiy qarashlar shakllantirildi;

sun'iy intellektning huquq subyektililigiga oid ilmiy-nazariy qarashlar asosida sun'iy intellektning huquqiy tabiati tahlil qilinib, mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi;

sun'iy intellekt tizimining o'z harakatlari (yoki harakatsizligi) uchun bevosita va bilvosita javobgarligi modellari tahlil qilinib, turli sohalarda qo'llanadigan sun'iy intellekt javobgarligini tartibga solish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi;

sun'iy intellektni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan alohida hujjatlar (axloq kodeksi, alohida qonun va sun'iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi) ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi shundan iboratki, sun'iy intellekt sohasidagi amaliyot va nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingan, rivojlangan xorijiy davlatlarning (AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya, Kanada va boshqalar) sun'iy intellekt javobgarligi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilg'or tajribalari o'rganilgan, mazkur sohada bevosita faoliyat olib boruvchi mutaxassislar bilan ekspertlar so'rovi va respondentlarning anketa so'rovnomalari tahlil etilgan, tadqiqot natijalari milliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan, taklif va tavsiyalar aprobatyadan o'tkazilib, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar Axborot texnologiyalari huquqi, Sun'iy intellekt va huquq, Kiber huquqi, Xalqaro xususiy huquqi, Xalqaro tijorat huquqi hamda Biznes huquqi fanlari nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan xulosalardan kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, oliy ta'lim muassasalari, yuridik texnikumlarda Axborot texnologiyalari huquqi, Sun'iy intellekt va huquq, Kiber huquqi, Xalqaro xususiy huquq, Xalqaro tijorat huquqi hamda Biznes huquqi moduli bo'yicha dars o'tishda, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot ishi raqamlashtirish jarayonida SI amaliy faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq muammolarning hal etilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati SI tomonidan turmushning turli sohalarida ishtirok etishining huquqiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganida ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan tibbiyot, ekologiya, shaharsozlik, qishloq xo'jaligi, advokatura, sud tizim va boshqa sohalarda SIDan foydalanishga oid qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishda, mazkur yo'nalishdagi O'zbekiston Respublikasi hukumati hujjatlarini tayyorlash amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim ostida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim tushunilishi yuzasidan takliflari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'grisida"gi Nizomning 3-bandini ishlab chiqishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 16-sentabrdagi 12/21-66-son dalolatnomasi). Ushbu

taklifning amalga oshirilishi qonunchilikda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash maxsus rejimi huquqiy maqomini belgilashga xizmat qilgan;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan tartibda maxsus rejim ishtirokchilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan va maxsus rejimning ishchi organi tomonidan yuritiladigan maxsus rejim ishtirokchilarining yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs, shu jumladan, ilmiy tashkilot tan olinishi yuzasidan takliflari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'grisida"gi Nizomning 3-bandini ishlab chiqishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 16-sentabrdagi 12/21-66-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi qonunchilikda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash maxsus rejimi ishtirokchilari tushunchasi va ularning huquqiy maqomini belgilashga xizmat qilgan;

maxsus rejim ishtirokchilari maqomini olishga talabgorlar – bu mazkur maxsus rejim ishtirokchisi maqomini olishga ariza bergan yuridik shaxslar, shu jumladan, ilmiy tashkilotlar hisoblanishi yuzasidan takliflari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori bilan tasdiqlangan Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'grisidagi Nizomning 3-bandini ishlab chiqishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 16-sentabrdagi 12/21-66-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash maxsus rejimi ishtirokchilari talabgorlari tushunchasi va huquqiy maqomini belgilashga xizmat qilgan;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim ishtirokchi tashkilotini maxsus rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish asoslari sifatida maxsus rejim ishtirokchisi maqomini olish uchun taqdim qilingan ma'lumot va hujjatlarda keyinchalik ularning to'liqligi, xolisligi va to'g'riligi bo'yicha asosli kamchiliklar aniqlanishi, maxsus rejim ishtirokchisining faoliyati loyiha doirasida ko'rsatilgan faoliyat turlariga muvofiq emasligi hamda ishchi organ bilan tuzilgan maxsus rejim ishtirokchisining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasligi yuzasidan takliflari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori bilan tasdiqlangan Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'grisidagi Nizomning 23-bandini ishlab chiqishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 16-sentabrdagi 12/21-66-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi maxsus rejim ishtirokchi tashkilotini maxsus rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum etish asoslarini belgilashga xizmat qilgan;

identifikatsiya tizimi jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning rasmiy ma'lumotlar manbai va shu orqali olingan ma'lumotlar davlat organlari, banklar, moliya va boshqa xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni masofaviy identifikatsiya (autentifikatsiya) qilishning asosi hisoblanishi to'g'risidagi taklifi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi "Aholiga taqdim etilayotgan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni tasdiqlash tizimini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi 679-son qarorining 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 16-sentabrdagi 12/21-66-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim tushunchasi yuzasidan bergan taklif Vazirlar Mahkamasining tashabbusi asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son qarori 2-bandining "a" kichik bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2022-yil 16-sentabrdagi 12/21-66-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi qonunchilikda Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimning ilmiy asoslangan tushunchasini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 15 ta ilmiy jurnal maqolalari, 5 ta ilmiy-amaliy konferensiya (xalqaro va respublika) tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o'n bitta paragrafni o'z ichiga olgan to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 242 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlikning umumnazariy masalalari va konseptual yondashuvlari**" deb nomlangan birinchi bobida sun'iy intellektning rivojlanish evolyutsiyasi va istiqbollari, sun'iy intellekt

tushunchasini aniqlashda konseptual yondashuvlar hamda sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish zarurati va javobgarligining nazariy-huquqiy shartlari tahlil qilingan.

Sun'iy intellektning yaratilishi va uning tarixiy rivojlanishini tadqiq etgan olimlarning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt o'z tarixiy rivojlanish yo'lida sun'iy intellektning oltin davri, sun'iy intellektning birinchi qishi, sun'iy intellektning ikkinchi qishi, sun'iy intellektning yangi davri kabi bosqichlarni bosib o'tganligi tahlil etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan sun'iy intellektni tarixiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish hamda hozirga kelib sun'iy intellekt jahon hamjamiyatning ajralmas qismiga va inson hayotining barcha sohalariga shiddat bilan kirib borayotganligidan kelib chiqib, sun'iy intellekt evolyutsiyasini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lish maqsadga muvofiq deb topilgan:

1) **Sun'iy intellekt yaratilishining dastlabki davri.** Dissertantning fikricha, bu davr bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich 1950–1975-yillarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda sun'iy intellekt ikkita asosiy yo'nalishda rivojlangan, ya'ni matematik mantiq va neyron tarmoqlar. Bu davrda kompyuterlarning ko'proq ma'lumotni saqlash va tezroq ishlay olish qobiliyati rivojlandi. AQSh Mudofaa ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi (DARPA) kabi davlat idoralari sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Bunda asosiy urg'u og'zaki tilni shifrlash va tarjima qilishga qaratilib, shuningdek, yuqori qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan mashinalarga qiziqish yanada ortib bordi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ikkinchi bosqichda, ya'ni 1975–1980-yillar orasida sun'iy intellekt sohasida neyron tarmoqlarni o'rganish va tadqiq etish to'xtab qoldi. Olimlar tomonidan neyron tarmoqlari qattiq tanqid ostiga olindi. Eng asosiy e'tirozlardan biri shundaki, SIning hisoblash imkoniyatlarini o'rganish jarayonida u hozircha eng oddiy mantiqiy funksiyani bajara olmaydi degan xulosa ilgari surildi. Natijada AQSh, Yaponiya hukumati tomonidan boshlangan loyihalar (to'liq avtonom transport vositasi, beshinchi avlod superkompyuteri) yopildi. Avtomatik tarjimonlar va matnni qayta ishlash tizimlari bilan bog'liq ko'plab loyihalar kasodga uchraganligi ta'kidlab o'tiladi.

Dissertant uchinchi bosqichda 1980–1984-yillar ekspert tizimlarining rivojlanishi sun'iy intellektga yana qayta qiziqish uyg'onishiga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Jumladan, 1980-yillarda tibbiyot, huquq va boshqa sohalarida SI negizidagi ekspert tizimlardan muvaffaqiyatli foydalanilishi SI sohasining ilk marta tijoriy salohiyatga ega ekanligi ko'rsatildi.

Sun'iy intellekt yaratilishi dastlabki davrining to'rtinchi bosqichi 1984–1990-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda sun'iy intellektning rivojlanishi yana sezilarli darajada sekinlashdi. Buning asosiy sababi shundaki, shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi natijasida rivojlanishning yangi yo'nalishi – kompyuter fanlari paydo bo'ldi. Sun'iy intellekt sohasidagi ko'plab olim va amaliyotchilar ushbu yangi sohada ishlay boshlaganligi ta'kidlab o'tiladi.

2) **Sun'iy intellektning rivojlanish davri.** Muallifning fikricha, bu 1990-yildan 2050-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunga qadar bu davr ichida SI sohasida eng muhim natijalar qo'lga kiritilishi ko'zda tutilmoqda. Buning sababi shundaki, 30-40 yillar oldin fanning rivojlanishiga sezilarli darajada to'siq bo'lib turgan kompyuter xotirasining cheklanganligiga barham berildi, chunki

insoniyat hozir (**Big data**) davrida, ya'ni inson uchun qayta ishlash imkonsiz bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlar to'planayotgan davrda yashayapti. 2050-yilga qadar sun'iy intellekt jamiyat hayotining barcha sohalariga: yengil va og'ir sanoat, iqtisodiyot, ta'lim, qishloq xo'jaligi, tibbiyot sohasi, farmatsevtika, elektron hukumat, sud huquqtizimi va boshqa sohalarga to'liq kirib boradi. Boshqacha aytganda, sun'iy intellekt insonning beminnat yordamchisiga aylanib ulguradi.

3) **Sun'iy intellektning taraqqiy etgan davri.** Dissertantning ta'kidlashicha, bu 2050-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. 2050-yildan keyin rivojlangan davlatlarda super sun'iy intellekt yaratiladi. Bu davrda sun'iy intellektning fikrlash qobiliyati insonning fikrlash qobiliyatiga nisbatan bir necha barobar ortib ketadi. Natijada suniy intellektning eng taraqqiy etgan modellari yaratiladi. Boshqacha aytganda, ushbu davrda huquqiy maqomga ega bo'la oladigan super sun'iy intellekt (elektron shaxs) yaratiladi va jamiyat a'zolarining teng huquqli subyektlari sifatida harakatlanishi mumkinligi bashorat qilinadi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, sun'iy intellekt jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borib, inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayni damda, uning fikricha, sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi munosabatlarning vujudga kelishi va uning jadallik bilan taraqqiy etib borishi ushbu sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Xususan, sun'iy intellektni qo'llash natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik bilan bog'liq masalalar hanzgacha ochiqlicha qolmoqda.

SIning javobgarligi uning huquqiy maqomi bilan ham bog'liq. Boshqacha aytganda, sun'iy intellektni shiddat bilan taraqqiy etib borishi uning huquqiy maqomi, shuningdek, SI sohasidagi yuridik javobgarlik subyektlari doirasi ham o'zgarishi to'grisidagi fikrlar asoslantirilgan. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida SIning tadrijiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan, yuridik javobgarlikni belgilashda quyidagi bosqichlarni bosib o'tishi va buning barobarida javobgarlikni quyidagicha taqsimlash maqsadga muvofiq deb topilgan:

1) ***Sun'iy intellekt (2010-yildan 2030-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi).*** Bu yerda SI oddiy bo'lib, faqat muayyan aniq vazifalarni bajarishi bilan chegaralanishi, o'z fikriga ega emasligi, mustaqil o'rganishi, o'z qobiliyatini rivojlantirish, atrof muhitdan olingan ma'lumotlarni tahlil etib, mustaqil qaror qabul qilish darajasiga ega bo'lmaydi. Ushbu holatda SI ishtirokida zarar yetkazish holatlarida faqat insonlar javobgar bo'lib, ular qatoriga foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi va dasturchi (yaratuvchi) kabilar kiradi, qonunchilikda ularning subsidiar yoki solidar javobgarligi belgilanishi mumkinligi asoslantirilgan (misol uchun, robot manipulyator tugmasini noto'g'ri bosishi zararga olib kelganda, bunga nima sabab bo'lgani, konstruktiv nuqson, ishlab chiqarishdagi nuqson yoki inson omili aniqlanishi shart).

2) ***Rivojlangan sun'iy intellekt (2030-yildan 2060-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi).*** Bunga hozirgi kunda deyarli to'liq avtopilotga ega "Tesla" avtomobili, "Uber" haydovchisiz taksi xizmati, "Yandex" karta servisi, Aqlli shahar tizimidagi svetoforlarni boshqarish SI tizimi, jarrohlik operatsiyalarini shifokor kuzatuv ostida, mustaqil bajara oladigan SI tizimlari misol tariqasida keltiriladi.

Ushbu holatda SI tomonidan yetkazilgan zarar uchun inson javobgar bo'lib, ular qatoriga foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi va dasturchi (yaratuvchi) kabilar kiradi. Shu

bilan birga, qonunchilikda ushbu SI oshiqcha xavf manbasi sifatida tan olinib, ularning qilmishi uchun javobgarlik aybsiz holatda ham yuzaga kelishi mumkinligi asoslab berilgan (FK 999-moddasi).

3) *Super sun'iy intellekt (2060-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi).* Muallifning fikricha, ushbu davrda to'laqonli huquq subyekti, huquq layoqati va muomala layoqati, delikt javobgarlik layoqatiga ega SI tizimlari yaratiladi. Mazkur holatda javobgarlik insonlar (foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi va dasturchi (yaratuvchi)ga emas, balki SI zimmasiga yuklanadi. Bunda javobgarlikka tortishda ayb emas, balki obyektiv harakat inobatga olinadi.

Shu munosabat bilan, sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishning strategiyasi yoki konsepsiyasini shakllantirib, unda:

SI yuridik maqomi va javobgarlik ehtimolini aniqlash;

milliy huquqda SIni rivojlantirish yo'nalishlarini taklif qilish;

SI avtonom aqlli tizimlar allaqachon mavjud turlaridan, shu jumladan, transport, aloqa, xavfsizlik va boshqalardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy ahamiyatga ega muammolarni o'rganish;

SI avtonom intellektual tizimlarni ishlab chiqish, nazorat qilish va joylashtirish bilan bog'liq doktrinalar va huquqiy qoidalarni yaratish istiqbollari, bunday tizimlardan foydalanishda qo'llanadigan huquqiy rejimlarni, shuningdek, sun'iy intellektni huquqiy qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari o'rtasidagi aloqalarni shakllantirish;

SI tizimlarini ishlab chiqaruvchilar, ularning operatorlari va boshqa shaxslarga nisbatan yuridik javobgarlik to'g'risidagi zamonaviy qonun normalarini qo'llashning maqbulligi va chegaralarini belgilash maqsadga muvofiq ekanligi asoslantiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Sun'iy intellekt doirasidagi huquqiy javobgarlik subyektiligi muammolari**" deb nomlangan. Ushbu bobda sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniqlashga nisbatan doktrinal va qonunchilikdagi yondashuvlar, sun'iy intellektning huquq subyektiligi muammoli jihatlari, "elektron shaxs" tushunchasi, sun'iy intellektni huquq subyektiligi bilan ta'minlash bo'yicha mavjud yondashuvlar tahlil etilgan.

Tadqiqotchi turli olimlar va ekspertlarning fikr va mulohazalarini tahlil etgan holda, bugungi kunda kompyuter tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlash inson tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlashdan farqlanishi tobora qiyinlashib borayotgani, inson va mashina o'rtasidagi o'xshashlik tobora ortib borayotgani ertami-kechmi kompyuterlarga "shaxs" maqomini berishni va tegishli munosabatda bo'lishni talab qilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Dissertant sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniqlashga nisbatan mavjud doktrinal yondashuvlarni quyidagi konseptual g'oyalarga ajratadi:

Sun'iy intellektni huquq obyektini, ashyo sifatida tan olish konsepsiyasi. Ushbu pozitsiya intellektual tizimlarda insonga xos bo'lgan huquq subyektlarining asosiy xususiyatlari: ong, his-tuyg'ular, vijdon va boshqalarga ega emasligi haqidagi fikrlarga asoslanadi. Shu bilan birga, muallifning ta'kidlashicha, agar mashina yuqori darajadagi rivojlanish va avtonomiyaga erishsa ham, u baribir huquq subyektliligiga ega bo'lishi shart emas.

Sun'iy intellektni yuridik shaxs sifatida tan olish konsepsiyasi. Fanda ma'lum doktrinal va qonunchilik normalarini hisobga oladigan pozitsiya taqdim etiladi, unga ko'ra yuridik shaxsning xususiyatlarini robotlarga moslashtirish nazariy jihatdan joizdir.

Bunday yondashuvning asoslari nafaqat yuridik shaxs nazariyasiga, balki amaldagi huquq tizimida maxsus tuziladigan sun'iy tushuncha sifatida "shaxs" umumiy huquqiy yuridik konstruksiyasiga ham tayanishni o'z ichiga oladi.

Elektron shaxs konsepsiyasi. SI tizimlarining qonunchilikda turli xil ko'rinishdagi nomlari mavjud: "robot", "elektron shaxs", "sun'iy shaxs" va boshqalar. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektni huquq subyekti – elektron shaxs sifatida belgilaydigan mustaqil atama taklif qilinmoqda, bunda so'z bioetik yoki falsafiy g'oya va qarashlar haqida emas, balki oddiy yuridik konstruksiya nomlanishi haqida bormoqda.

Robot huquqning kvazisubyekti konsepsiyasi. Ilmiy adabiyotlarda huquq "kvazisubyekti" atamasi keng tarqalgan bo'lib, unda to'laqonli huquq subyektliligiga ega bo'lmagan huquq subyekti tushuniladi. Ba'zi mualliflar davlat yoki mahalliy organlar shaklida huquqiy munosabatlarda harakat qiladigan turli xil ommaviy-huquqiy tuzilmalarni kvazisubyektlar sifatida tasniflaydi. Biroq hatto huquq kvazisubyektlarda ham huquq subyektliligining sun'iy intellektga xos bo'lmagan iroda kabi sifati mavjud.

Tadqiqotchi yuqoridagi konseptual yondashuvlar asosida sun'iy intellektning huquqlari, erkinliklari va burchlari ham inson huquqlari, erkinliklari va burchlaridan farq qilishi kerak degan xulosaga keladi. Birinchidan, sun'iy intellektning huquq va erkinliklari o'z tabiatiga ko'ra tabiiy bo'lishi mumkin emas, ular doimo shaxs tomonidan ta'minlanadi hamda inson huquq va erkinliklaridan kelib chiqadi. Ikkinchidan, sun'iy intellektga huquq va erkinliklarni berish faqat uning yuqori darajada rivojlangan xilma-xilligiga nisbatan o'rinli bo'lib tuyiladi, lekin hozirda yaratilayotgan va hali insonning bevosita buyruqlariga bog'liq bo'lgan bunday intellekt elementlariga ega mashinalarga mos emas. Shunga ko'ra, sun'iy intellektning huquq va erkinliklari masalasi hali keskin emas – bu texnologik kelajak masalasidir.

Uchinchidan, rivojlangan sun'iy intellektni faqat cheklangan miqdordagi shaxsiy huquq va erkinliklarni (masalan, erkin bo'lish huquqi, o'zini o'zi takomillashtirish huquqi, daxlsizlik va suiiste'molchilikdan himoya qilish huquqi, so'z erkinligi, ijod erkinligi, mualliflik huquqi va cheklangan mulkiy huquqlar) bilan ta'minlash tavsiya etiladi.

Ushbu bob doirasida SI huquqiy maqomi hajmi va uning tabiati borasidagi doktrinal yondashuvlar tahlil qilinib, yuridik adabiyotlarda intellektual tizimlarning huquq layoqati shakllarini, aniqrog'i, huquq subyektliligining taxminiy oraliq variantlari majmuini, shu jumladan, "maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan obyekt", "huquqiy munosabatlar ishtirokchisi", "kvazisubyekti" kabi talqin etish holatlarini o'rganib, kelajakda bir vaqtning o'zida yuridik shaxslar va elektron shaxslarning xususiyatlari va funksiyalarini birlashtirgan huquq subyektlarining ayrim gibridd shakllari yaratilishini istisno etib bo'lmashini qayd etgan.

Ayni paytda dissertant fanda mavjud qarashlar, fikr va g'oyalarga asoslanib huquq subyektlari tarkibiga sun'iy intellektni kiritish muayyan vaqt talab etishi va kelgusida muqarrar hodisa sifatida yuz berishi mumkinligi haqidagi xulosaga keladi.

Dissertatsiyaning “Sun’iy intellektning huquqiy javobgarligi muammolari” deb nomlangan uchinchi bobida sun’iy intellekt javobgarligining huquqiy tabiati, sun’iy intellekt tizimining o‘z harakatlari (yoki harakatsizligi) uchun bevosita javobgarligi modeli hamda turli sohalarda qo‘llanadigan sun’iy intellekt tizimlarining bilvosita javobgarligini aniqlash muammosi tadqiq etilgan.

Muallifning fikriga ko‘ra, texnik taraqqiyotning ushbu bosqichida mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tabiiy (inson) va sun’iy intellektning ijtimoiy o‘zaro ta’sirining huquqiy tarkibiy qismini o‘zgartirishni, birinchi navbatda, raqamli jamiyatning yangi iqtisodiy tartibini tavsiflash uchun yangi atamalar, kategoriyalar va ta’riflarni kiritish orqali amaldagi qonunchilikni o‘zgartirishni talab qilmoqda.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, bir qator mualliflar SIga huquq subyekti maqomini berish masalasini muhokamaga qo‘yish hali erta ekanligini asoslaydilar. Shu bilan birga, aksariyat olimlar SI subyektiga huquqiy maqom berish ehtiyoji hozircha mavjud emasligini tan olishsa ham, kelajakda aqlli mashinalarga huquqiy maqom berish masalasi muqarrar ravishda ko‘tarilishini ta’kidlaydilar.

Ayni damda, muallifning fikriga ko‘ra, SIga elektron shaxs huquqiy maqomini berish, uning avtonom va mustaqilligini tan olish, jismoniy va yuridik shaxslar (ya’ni undan foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi, yaratuvchi)ni ularning harakatlari uchun javobgarlikdan ozod qilish emas, balki SI javobgarligini tartibga solishga qaratilgan bo‘lishi hamda SI va uning orqasida turgan shaxslar javobgarligini to‘laqonli farqlash muammolari hal etishi lozim.

Tadqiqot ishida xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlillari asosida *O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 999-moddasiga o‘zgartirish kiritib, SI tizimlarini oshiqcha xavf manbai deb tan olish, shuningdek, barcha yangi yaratilgan va muomalaga kiritilayotgan SI texnologiyalarining potensial xavfidan kelib chiqib, keng doiradagi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan SI texnologiyalarini ekspertizadan o‘tkazishning ma’muriy tartibini belgilash zarurligi asoslantiriladi.*

Tadqiqotchi sun’iy intellektni rivojlantirishning taklif etilayotgan vaqt bosqichlari va sun’iy intellektning huquq subyektiligi va huquqiy javobgarligini belgilovchi qonun hujjatlarini yaqin istiqbol, o‘rta istiqbol va uzoq muddatli istiqbolda sun’iy intellekt huquqiy javobgarligini tartibga solish, SI subyektlarining huquqiy maqomi va mazmuni, yuridik faktlar va javobgarlikka tortish mexanizmlarini belgilab beruvchi kodifikatsiyalashtirilgan normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi kutiladi, degan fikrni ilgari suradi.

Dissertatsiya ishida muallif tomonidan xorijiy mamlakatlar qonunchiligida sun’iy intellekt tomonidan sodir etilgan delikt uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortishning bir necha yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Unga ko‘ra, birinchi model, “*The Perpetration-by-Another*” (boshqa shaxs orqali sodir etish) modeli sun’iy intellektni javobgarlik subyekti sifatida tan olmaydi va bir vaqtning o‘zida *actus reus* (huquqqa xilof harakat) va *mens rea* (ayb, ruhiy holat) kombinatsiyasiga ega bo‘lishini talab qilmaydi.

Ikkinchi model, “*The Natural-Probable-Consequence Liability*” (tabiiy, ehtimoliy oqibat) modeli, dasturchining (foydalanuvchining) javobgar bo‘lishi uchun *actus reus* (huquqqa xilof harakat) va *mens rea* (ayb, ruhiy holat) bo‘lishi shartligini

nazarda tutmaydi. Bu holat sun'iy intellekt tizimidan normal foydalanish vaqtida yuz bergan ehtiyotsizlik va xato tufayli huquqbuzarlik sodir etilganda yuzaga keladi.

Uchinchi model, *“The Direct Liability”* (to'g'ridan to'g'ri javobgarlik) modeli bo'lib, u butunlay boshqacha xarakterga ega. U sun'iy intellektni keyinchalik fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan mustaqil huquq subyekti deb hisoblaydi. Model nomidan ko'rinib turibdiki, u to'g'ridan to'g'ri sun'iy intellekt javobgarligini belgilaydi, SI harakatlari uchun dasturchi (foydalanuvchi) javobgar hisoblanmaydi.

Shuningdek, muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismini yangi 1004¹-modda “Robot agentning xatti-harakatlari uchun javobgarlik” bilan to'ldirish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Sun'iy intellekt qo'llanishiga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish muammolari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida sun'iy intellektni ishlab chiqarish va qo'llash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning xorijiy tajribasi (qiyosiy tahlil), sun'iy intellektni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etiladi hamda axloq kodeksi, alohida qonun va sun'iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi taklif etiladi.

Xususan, tadqiqotchining qayd etishicha, O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektni tartibga solish asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4996-son qarori bilan belgilangan. Mazkur qaror “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq hamda mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ulardan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamli ma'lumotlar yuqori sifatini ta'minlash, malakali kadrlar tayyorlash maqsadida qabul qilingan.

Bundan tashqari, 2021-yil 26-avgustdagi “Sun'iy intellektdan foydalanishning alohida rejimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5234-son qarorida ilk marta eksperimental va innovatsion tadqiqotlar doirasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning maxsus rejimi joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Dissertantning ta'kidlashicha, so'nggi yillarda axborotlashtirish va ilg'or texnologiyalarni turli sohalarda tatbiq etish borasidagi chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston Respublikasida AT va sun'iy intellekt sohasida o'ziga xos salohiyat asoslari yaratildi. Buning yaqqol misoli sifatida sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo'nalishida Farg'ona shahridagi maktablarda “Aqlli maktab” dasturi, Andijon viloyatida “Monterra” ekin maydonlarining holatini baholovchi onlayn platforma, Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida “Aqlli shahar”, Toshkent shahrida esa “Xavfsiz shahar” va “Raqamli Toshkent” loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, amaliyotda mazkur SI qo'llanishi holatlari turli sohalarda tizimsiz ortib borishi barobarida ushbu texnologiyalardan foydalanishni huquqiy tartibga solish, xususan, uning salbiy oqibatlari uchun javobgarlikni belgilash ishlari ortda qolmoqda.

Shu munosabat bilan muallif tomonidan turli xorijiy davlatlar tajribasi tahlil etilib, qariyb barcha ilg'or xorijiy davlatlarda sun'iy intellekt sohasida milliy strategik hujjatlar qabul qilinib, ularda jumladan, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga barqaror sarmoya kiritish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdagi to'siqlarni

kamaytirish, iqtisodiyot va milliy xavfsizlik sohasida milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejaları amalga oshirilayotgani qayd etiladi.

Jumladan, AQSh tajribasini qiyosiy tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini turli sohalarda rivojlantirish faol amalga oshirilmoqda, boshqacha aytganda, sun'iy intellektni rivojlantirish milliy texnologik ustuvorlik sifatida e'lon qilingan. Qolaversa, AQSh o'z raqobatchilaridan o'zib ketish va Amerikaning iqtisodiy hamda texnologik ustunligini saqlab qolishda sun'iy intellekt muhim bo'lib hisoblanadi.

Dissertantning ta'kidlashicha, 2023-yil boshiga kelib, sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyalar dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida qabul qilingan. Ular qatoriga AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Kanada, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa Ittifoqi, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida SI texnologiyalari taraqqiyotiga strategik ahamiyat berish va milliy SI rivojlanishi konsepsiyasini ishlab chiqish taklifi ilgari surilgan.

Tadqiqotchining fikricha, O'zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining prognozlariga ko'ra, raqobatbardosh sun'iy intellekt texnologiyalari yetarli darajada rivojlanmagan va foydalanilmagan taqdirda mamlakatning ilmiy va texnologik rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish sekinlashadi, bu esa keyinchalik uning iqtisodiy va texnologik jihatdan boshqa mamlakatlardan orqada qolishiga olib keladi.

Muallif bugungi kunda butun dunyoda SI texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar, konstruktorlar va boshqalar, o'z vaqtida Ayzek Azimov tomonidan ishlab chiqilgan robototexnika qonunlariga asoslangan holda SI sohasidagi axloqiy ko'rsatmalarni qabul qilishga kirishganiga jiddiy urg'u beradi. Misol uchun, robototexnika sohasidagi ilk aniq axloqiy standart – "Robotlar va robototexnika tizimlarini axloqiy loyihalash va qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"si 2016-yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan. Shuningdek, Yevropada "Yevropa Ittifoqi axloq direktivasi" ishonchli va xavfsiz bo'lgan SIni yaratish maqsadini birinchi o'ringa qo'yadi. Ayni damda, xuddi shu kabi axloqiy tashabbuslar AQSh, Kanada, Xitoy va boshqa davlatlarda ham ishlab chiqilmoqda ekanligi ta'kidlanadi.

Xulosa o'rnida tadqiqotchi xorijiy tajribadan kelib chiqib, Sun'iy intellektni rivojlantirish Milliy konsepsiyasini, O'zbekiston Respublikasida "Sun'iy intellekt tizimi to'g'risida"gi alohida qonunni hamda Sun'iy intellekt sohasida odob-axloq qoidalari (kodeksi)ni ishlab chiqish va qabul qilish taklifini asoslaydi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Muallifning fikriga ko'ra, huquqiy munosabat subyekti eng avvalo erk muxtoriyatiga, mulkiy mustaqillikka hamda tegishli huquq va muomala layoqatiga ega

bo'lgan shaxs bo'lishi lozim. Bunday sifatlarga tabiiy maqom (inson, jismoniy shaxs, fuqaro) yoki qonuniy maqom (yuridik shaxs, davlat) asosida ega bo'lish mumkin. Sun'iy intellektda erk muxtoriyatining muayyan qirralari mavjud bo'lsa-da, unda mulkiy mustaqillik, ya'ni mol-mulk mavjud bo'lmaydi. Shu sababli huquq subyektiligi nuqtai nazaridan sun'iy intellekt sohibining erk-irodasini amalga oshiruvchi, uning roziligi va ruxsati bilan faoliyatini amalga oshiruvchi "vakil" sifatida tavsiflanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki sun'iy intellektning faoliyati bevosita operator (sohibi) tomonidan yo'lga qo'yiladi va uning istagi bilan tugatiladi. Sun'iy intellekt ishtirok etadigan huquqiy munosabat natijasida vujudga keladigan huquq va majburiyatlar uning egasi (mulkdori)ga tegishli bo'ladi.

2. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, sun'iy intellekt ishlashi oqibatida yuzaga kelgan huquqiy javobgarlik subyektini belgilash muammosi ham bugungi kunda dolzarbdir. Chunki hozirda sun'iy intellekt avtomobilni boshqarishdan tortib aholiga maishiy xizmat ko'rsatishgacha uy ishlarini bajarish va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida qo'llanmoqda. Fikrimizcha, ayni damda sun'iy intellekt javobgarlik subyektini bo'la olmaydi, uning faoliyati uchun javobgarlik egasiga yoki zarar sun'iy intellekt nuqsoni oqibatida yetkazilgan bo'lsa ishlab chiqaruvchiga yuklatilishi maqsadga muvofiq. Biroq bunda uchinchi shaxs – jabrlanuvchining huquqiy maqomi (iste'molchi ekanligi)dan kelib chiqib javobgarlik subyektini tanlash imkoniyatini berish mumkin.

3. Dissertantning ta'kidlashicha, huquqiy tafakkur hamda sivilistik doktrinaning bugungi rivojlanish darajasidan kelib chiqib sun'iy intellekt xatti-harakati uchun huquqiy javobgarlik subyektiligini belgilashda oshiqcha xavf manbai maqomidan kelib chiqish ham ahamiyatlidir. Zero, insonning bevosita nazoratidan chiqib ketishi mumkin bo'lgan har qanday obyekt faoliyati uchun uning egasi javobgar sanaladi. Shu nuqtayi nazardan sun'iy intellekt uchinchi shaxslar bilan munosabatga kirishganida yoki bevosita tashqi muhit bilan to'qnash kelishi mumkin bo'lganida u egasining nazorati ostida bo'lishi hamda har qanday kutilmagan nosozlik yuzaga kelganda qaror qabul qilish yoki faoliyat yuritish egasi (inson) tomonidan amalga oshirilishi lozim.

4. Muallifning qayd etishicha, virtual olamning bugungi rivojlanish darajasi va istiqboli "virtual shaxs", "virtual korxon", "elektron shaxs" kabi terminlarni yuzaga keltirdi. Ushbu terminlarning barchasi turlicha ma'noga ega hisoblanadi. Masalan, "virtual shaxs" kibermakonda ro'yxatdan o'tgan shaxs sifatida tushunilishi mumkin. Bundan farqli ravishda "elektron shaxs" mutaxassislar tomonidan sun'iy intellekt sifatida baholanadi. Chunki sun'iy intellekt virtual olamda uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatga kirishadi hamda buning natijasida vujudga kelgan huquq va majburiyatlar uning o'ziga taalluqli bo'ladi. Mazkur vaziyatda "elektron shaxs" – sun'iy intellekt hisobida (hisobraqamida) mablag'lar mavjud bo'lsa, ushbu mablag' uning zimmasida majburiyatni bajarish uchun sarflanishi yoki javobgarlik qoplanishi mumkinki, bu holat to'liq ma'noda fuqarolik huquqi doktrinasidagi huquq subyektiligining asosiy talablariga mos keladi.

5. Dissertant insonga xos bo'lgan ong sun'iy intellektga xos emasligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, sun'iy intellektda dasturlashtirilgan aql – intellekt mavjud. Lekin aql ong darajasida bo'la olmaydi. Insondagi ong kutilmagan hamda hech bir o'lchov bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan natijani hosil qilishi mumkin, sun'iy intellektda esa oldindan bilinadigan va dasturda ifodalab qo'yilgan natijalar olinadi.

Shunday ekan, sun'iy intellekt huquqiy javobgarligi ham uning texnik vosita sifatidagi holati bilan bog'liqdir. Shunga qaramay *sun'iy intellekt**dagi aqlning kelajakda qanday darajaga chiqishini hech kim belgilab bera olmaydi. Istiqbolda sun'iy intellektga alohida maqom berilishi va uning huquqiy holati, huquq va muomala layoqati, bitim yoki delikt layoqati kabi jihatlarining huquqiy asoslari belgilanishi talab etiladi.*

6. Muallif fuqarolik huquqida yuridik shaxslarga nisbatan amal qiluvchi "fiksiya nazariyasi" hamda kvazi subyektlilikning sun'iy intellektga nisbatan qo'llanishi masalasining tahlili asosida quyidagi xulosaga keladi: "fiksiya nazariyasi"da amal qiladigan erk-iroda yuridik shaxsga emas, balki uning ta'sischisi yoki boshqaruvchisi bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishliligi sun'iy intellekt uchun xos emas. Muayyan dastur yoki texnik vosita sun'iy intellekt hisoblanishi uchun qaror qabul qilish funksiyasiga ega bo'lishi lozim. Shu sababli "fiksiya nazariyasi" sun'iy intellektga mos kelmaydi. Kvazi subyektlilik huquqiy javobgarlik nuqtayi nazaridan sun'iy intellektning huquqiy tabiatiga mos keladi.

7. Quyidagi mualliflik ta'rifini berish taklif etiladi:

*Sun'iy intellekt atrof**dagi jarayonlarni va atrof-muhitni (vaziyatni), munosabatlarni idrok etish (tan olish, tahlil qilish va baholash) va modellashtirish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va amalga oshirish, o'z xatti-harakatlari va tajribasini tahlil qilish va tushunishdan iborat kognitiv dasturga ega sun'iy axborot-kommunikatsiya (elektron, virtual, elektron-mexanik, bioelektron-mexanik yoki gibril) tizimidir.*

8. SI mavjudligining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni shartli ravishda ikkita yondashuvga bo'lish mumkinligi qayd etiladi:

- sun'iy intellektga ega amaliy tizimlarni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish va ularning rivojlanishini rag'batlantirish;

- "super sun'iy intellekt"ni yaratish sohasini, xususan, ishlab chiqilgan texnologiyalarning axloq va huquq sohasidagi umume'tirof etilgan standartlarga muvofiqligini tartibga solish.

9. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida SI evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan, yuridik javobgarlikni belgilashda quyidagi bosqichlarni bosib o'tish va buning barobarida javobgarlikni quyidagicha taqsimlash talab qilinadi:

1) *Sun'iy intellekt (2010-yildan 2030-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi)*. Bu yerda SI oddiy bo'lib, faqat muayyan aniq vazifalarni bajarishi bilan chegaralanishi, o'z fikriga ega emasligi, mustaqil o'rganishi, o'z qobiliyatini rivojlantirish, atrof-muhitdan olingan ma'lumotlarni tahlil etib, mustaqil qaror qabul qilish darajasiga ega bo'lmaydi. Ushbu holatda SI ishtirokida zarar yetkazish holatlarida faqat insonlar javobgar bo'lib, ular qatoriga foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi va dasturchi (yaratuvchi) kabilar kiradi, qonunchilikda ularning subsidiar yoki solidar javobgarligi belgilanishi mumkin (misol uchun, robot manipulyator tugmasini noto'g'ri bosishi zararga olib kelganda, bunga nima sabab bo'lgani, konstruktiv nuqson, ishlab chiqarishdagi nuqson yoki inson omili aniqlanishi shart).

2) *Rivojlangan sun'iy intellekt (2030-yildan 2060-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi)*. Bunga hozirgi kunda deyarli to'liq avtopilotga ega "Tesla" avtomobili, "Uber" haydovchisiz taksi xizmati, "Yandex" karta servisi, Aqlli shahar tizimidagi

svetoforlarni boshqarish SI tizimi, jarrohlik operatsiyalarini shifokor kuzatuvchi ostida, mustaqil bajara oladigan SI tizimlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Ushbu holatda SI tomonida yetkazilgan zarar uchun inson javobgar bo'lib, ular qatoriga foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi va dasturchi (yaratuvchi) kabilar kiradi. Shu bilan birga, qonunchilikda ushbu SI oshiqcha xavf manbasi sifatida tan olinib, ularning qilmishi uchun javobgarlik aybsiz holatda ham yuzaga kelishi mumkin (FK 999-moddasi).

3) *Super sun'iy intellekt (2060-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi)*. Ushbu davrda to'laqonli huquq subyekti, huquq layoqati va muomala layoqati, delikt javobgarlik layoqatiga ega SI tizimlari yaratiladi. Mazkur holatda javobgarlik insonlar (foydalanuvchi, ishlab chiqaruvchi va dasturchi (yaratuvchi))ga emas, balki SI zimmasiga yuklanadi. Bunda javobgarlikka tortishda ayb emas, balki obyektiv harakat inobatga olinadi.

Shu munosabat bilan, sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishning strategiyasi yoki konsepsiyasi shakllantirilib, unda:

SI yuridik maqomi va javobgarlik ehtimolini aniqlash;

milliy huquqda SI ni rivojlantirish yo'nalishlarini taklif qilish;

SI avtonom aqlli tizimlar allaqachon mavjud turlaridan, shu jumladan, transport, aloqa, xavfsizlik va boshqalardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy ahamiyatga ega muammolarni o'rganish;

SI avtonom intellektual tizimlarni ishlab chiqish, nazorat qilish va joylashtirish bilan bog'liq doktrinalar va huquqiy qoidalarni yaratish istiqbollari, bunday tizimlardan foydalanishda qo'llanadigan huquqiy rejimlarni, shuningdek, sun'iy intellektni huquqiy qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari o'rtasidagi aloqalarni shakllantirish;

SI tizimlarini ishlab chiqaruvchilar, ularning operatorlari va boshqa shaxslarga nisbatan yuridik javobgarlik to'g'risidagi zamonaviy qonun normalarini qo'llashning maqbulligi va chegaralarini belgilash maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

10. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda uning vazifalari, unga berilgan huquq va erkinliklardan farqli o'laroq, insonning majburiyatlari bilan taqqoslanishi va robototexnikaning uchta mashhur qonuni bilan qat'iy bog'liq bo'lishi taklif etilgan;

shaxsga zarar yetkazmaslik yoki harakatsizlik orqali shaxsga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yimaslik;

agar boshqa shaxsga zarar yetkazishga qaratilgan bo'lmasa, shaxs bergan barcha buyruqlarga bo'ysunish;

o'z xavfsizligi to'g'risida bir kishiga zarar yetkazmasa yoki shaxs tomonidan berilgan buyruqlarni buzishga olib kelmaydigan darajada g'amxo'rlik qilish.

11. Dissertant kelajakda sun'iy intellektning huquq subyektiligini e'tirof etgan holda, "inson, uning huquq va erkinliklari eng oliy qadriyatdir" degan asosiy tamoyilni unutmaslik kerak. Shuning uchun sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish, ustuvor vazifa sifatida uning huquq va erkinliklariga qo'yilgan umumbashariy cheklolarni belgilashi va batafsil tavsifini berishi kerak. Bu SI ning aql-idroki rivojlanish darajasiga ko'ra ontologik xarakterdagi eng muhim savollarga javob berishi va inson ustuvorligini shubha ostiga oladigan aqlli "mashinalar" paydo bo'lishini kutmasdan, amalga oshirilishi kerak degan xulosaga kelgan.

12. Bugungi kunda SI kuchli intellekt va ayrim masalalarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga qaramay, iroda erkinligiga ega emas, uning imkoniyatlari texnologiya ishlab chiqaruvchisi tomonidan dasturlashtirilgan. Shuning uchun u huquq subyektliligi mustaqil tashuvchisi va to'liq huquqli subyekt bo'lishiga hali erta. Sun'iy intellekt inson shaxsining g'oyatda muhim tarkibiy qismlari (ruh, erkin ong, his-tuyg'ular, niyat, shaxsiy manfaat) tashuvchisi emas. Shu sababli inson imkoniyatlaridan bir necha baravar yuqori bo'lgan axborotni qayta ishlashning yuqori darajadagi tezligiga qaramay, sun'iy intellekt unga bog'liq bo'lgan moddiy va texnik yordamga ega dastur bo'lib qoladi xolos. Yuqoridagilarga asoslanib, ayni damda huquq subyektlari turkumiga sun'iy intellektni kiritish hali erta va maqsadga muvofiq emasligi asoslantirilgan.

13. Muallif tomonidan, sun'iy intellekt mahsulotining zararli oqibatlarini paydo bo'lishiga olib kelgan xatti-harakatlar uchun javobgarlikni aniqlashning quyidagi asosiy modellari ajratib ko'rsatilgan:

- haqiqiy aktor vositasi modeli, unda sun'iy intellekt mahsuloti prinsipial jihatdan aybsiz ("aybdor") agent, huquqbuzarlikning haqiqiy ijrochisining quroli sifatida qabul qilinadi;

- tabiiy ehtimoliy oqibatlar modeli, uning doirasida sun'iy intellekt mahsuloti uni ishlab chiqarish/dasturlashning tabiiy, mantiqiy muntazam va ehtimol oqibati (hosilasi) bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi, shuningdek, uni yaratgan va/yoki shaxs tomonidan amalga oshiriladi;

- sun'iy intellekt mahsulotining bevosita o'z harakatlari (yoki harakatsizligi) uchun bevosita javobgarligi modeli;

- sun'iy intellekt mahsuloti egasi va/yoki operatorining ushbu mahsulotning niyatlari va harakatlarini to'g'ri talqin qilmaganligi va ushbu xatti-harakatlarning oldini olmaganligi uchun kvazi-o'rmini bosuvchi javobgarlik (boshqalarning beparvoligi uchun javobgarlik) modeli.

Ushbu modellarning har birini qabul qilish va amalga oshirish uchun turli xil qonunchilik yondashuvlari va chora-tadbirlar majmui talab qilinadi.

14. Tadqiqotchi tomonidan sun'iy intellektni bevosita fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish uchun muomala layoqatiga ega emasligi to'g'risidagi pozitsiya qo'llab-quvvatlangan. Masalan, ba'zi hollarda elektron tizimning noqonuniy harakatlariga virus dasturlari, masalan, troyan virusi yoki sun'iy intellektdan foydalangan holda noqonuniy harakatlarni amalga oshirish uchun hujum qiladigan boshqa zararli dasturlar tufayli elektron tizimning o'zini bu qilmishda aybdor deb bilish mutlaqo asossiz ko'rinadi. Bu holatda javobgarlik tizimning algoritm sxemasiga kirib, deliktning bevosita sababchisi bo'lgan zararli dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi yoki xuddi shu harakatlarni sodir etgan foydalanuvchi zimmasiga yuklatilishi shart. Qolaversa, har qanday holda ham sun'iy intellektni fuqarolik-huquqiy javobgarlik subyekti sifatida tan olish nafaqat batafsil tadqiqotlarni, balki ma'lum darajada ehtiyotkorlikni ham talab qiladigan jarayon.

15. Mualliflik yondashuviga ko'ra, kelgusida ishlab chiqiladigan qonun hujjatlarida aks ettirilgan mulkka yetkazilgan zarardan tashqari robotlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun fuqarolik javobgarligiga nisbatan qo'llanadigan har qanday huquqiy qoidalar, jabrlanuvchiga zarar inson bo'lmagan SI agent tomonidan

yetkazilgan degan asosda, undirilishi mumkin bo'lgan zararining turini yoki hajmini cheklamasligi kerak, shuningdek, tovon to'lash shakllarini ham cheklamasligi lozim. Jumladan, qonunchilik huquqiy javobgarlikning qat'iy yondashuvi yoki xavflarni boshqarish yondashuvi qo'llanishi kerakligini aniqlash uchun chuqur baholashga asoslangan bo'lishi kerak. Qat'iy javobgarlik faqat yetkazilgan zararni isbotlash va robotning nomaqbul harakatlari va natijada jabrlangan tomon yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'liqlikni o'rnatishni talab qiladi. Javobgar taraflar aniqlangandan so'ng ularning javobgarligi robotga berilgan ko'rsatmalarning haqiqiy darajasiga va uning avtonomligi darajasiga mutanosib bo'lishi kerak. Robotning mashg'ulot vaqti qanchalik uzoq bo'lsa, uning "treneri-murabbiysi"ning javobgarlik darajasi ham shunchalik yuqori bo'lishi kerak. Borgan sari avtonomlashgan robotlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni taqsimlash qiyinligi muammosining yechimi sifatida, masalan, avtomobil transportida bo'lgani kabi, majburiy sug'urta tizimini joriy etish lozim.

16. Tadqiqotchining qayd etishicha, kelgusida universal robototexnika sug'urta tizimini joriy etish zarur bo'ladi. Avtotransport vositalarini sug'urtalashda bo'lgani kabi bunday sug'urta tizimi sug'urta qoplamasi mavjud bo'lmagan hollarda zararni qoplashni ta'minlash uchun maxsus yaratilgan sug'urta fondi tashkil etilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Ushbu sug'urtalashda quyidagilar inobatga olinishi ta'kidlangan:

a) zarur bo'lganda va sun'iy intellektli robot bloklarining alohida toifalari uchun asosli majburiy sug'urta sxemasini yaratish, unga ko'ra (avtomobil ishlab chiqaruvchilar kabi) robot ishlab chiqaruvchilari yoki egalari zararni sug'urta qilish majburiyatlarini o'z zimmlariga olishlari mumkin;

b) tashkil etiladigan sug'urta kompensatsiyasi jamg'armasi, agar robot tomonidan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanmagan bo'lsa, tovon to'lanishini kafolatlash maqsadlariga xizmat qiladi;

d) ishlab chiqaruvchi, dasturchi, mulkdor yoki foydalanuvchi ko'rsatilgan kompensatsiya sug'urta fondiga o'z hissasini qo'shgan taqdirda, shuningdek, ular tomonidan yetkazilgan zararni qoplashni kafolatlash uchun birgalikda sug'urta shartnomasi tuzgan taqdirda, ularning javobgarligi mos ravishda solidar tartibda taqsimlanadi;

e) barcha avtonom sun'iy intellekt mahsulotlari uchun umumiy sug'urta jamg'armasini yaratish yoki robotlarning har bir toifasi uchun alohida fondlar yaratish to'g'risida qaror qabul qilish zarur;

f) robot va tegishli fond o'rtasidagi aloqa maxsus reyestrda ko'rsatilgan yagona ro'yxatga olish raqamidan foydalanish kerak, bu robot bilan o'zaro aloqada bo'lgan har bir kishiga fondning maqomi, zarar yetkazgan robot, uning egalari va boshqa barcha ma'lumot, shu jumladan, mulkiy javobgarlik chegaralari to'g'risida xabardor bo'lish imkonini beradi;

g) uzoqroq kelajakda robotlar uchun maxsus huquqiy maqom yaratish, hech bo'lmaganda eng murakkab avtonom robotlar, ular yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday zarar uchun javobgar bo'lgan elektron shaxslar sifatida huquqiy maqomga ega bo'lishi mumkin.

17. Sun'iy intellekt texnologiyalari va mahsulotlarini ishlab chiqish va qo'llash sohasidagi qonunchilikni ishlab chiqishda quyidagi yo'nalishlarga urg'u berish taklif etiladi:

- sun'iy intellekt sohasida kompleks ixtisoslashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

- sun'iy intellekt sohasida profilli davlat hokimiyati organi tashkil etilishini ta'minlash;

- sun'iy intellekt mahsulotlari xavfsizligini ta'minlaydigan sun'iy intellekt texnologiyalari va mahsulotlarini sertifikatlashni ta'minlash.

18. Sun'iy intellekt texnologiyalari va mahsulotlarini ishlab chiqish va qo'llash sohasida huquqiy tartibga solishda eng asosiy tamoyillardan biri – ehtiyotkorlik tamoyilidir. Ehtiyotkorlik tamoyili, qoida tariqasida yangi ixtirolar, ularni ishlab chiqaruvchilar shaxslarga, guruhlariga, ayrim subyektlarga, madaniy makonga va ekologiyaga zarar yetkazmasligini isbotlamaguncha cheklanishi va taqiqlanishi kerak, degan fikr ilgari surilgan.

19. Dissertantning fikriga ko'ra, sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda markazlashtirilgan (davlat) tizimni qo'llash qator afzalliklarga ega. Jumladan, proaktiv tartibga solish va xavfsizlik sun'iy intellekt mahsuloti harakatlari uchun yuridik javobgarlikni belgilash bilan bog'liq xavflarni boshqarishdagi noaniqlik darajasini sezilarli darajada kamaytiradi. Ayni chog'da SI va robototexnika sohasida o'z-o'zini tartibga solish yuridik norma ijodkorligi mexanizmlarini qo'llash faqat axloq-odob, etika qoidalarini va reglamentlarini ishlab chiqishda maxsus dasturchilar uyushmalari tashabbuslari sifatida qaralishi mumkin.

II. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar:

20. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga quyidagi mazmundagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish taklif etilgan:

1) 52-bob quyidagi mazmundagi 920¹-modda bilan to'ldirilsin:

“920¹-modda. Sun'iy intellekt oshiqcha xavfini sug'urta qilish.

Sun'iy intellekt oshiqcha xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'z faoliyatida qo'llanadigan sun'iy intellekt oshiqcha xavfi va faqat uning foydasiga sug'urtalanishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning sun'iy intellekt oshiqcha xavfini sug'urta qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga sun'iy intellekt oshiqcha xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi”.

2) 922-moddasi birinchi qismi quyidagi mazmundagi xatboshisi bilan to'ldirilsin: **“qonunda yoki shartnomada belgilangan sun'iy intellekt oshiqcha xavfi”.**

3) 999-moddasi birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Faoliyati tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar (transport tashkilotlari, sanoat korxonalarini, qurilishlar, transport vositalarining egalari va boshqalar), shuningdek, **sun'iy intellekt mahsulotlaridan foydalanuvchilar**, oshiqcha xavf manbai yetkazgan zararni, agar zarar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch

yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlay olmasalar, to‘lamlari shart.

Ma’lumot uchun: ushbu kiritilgan o‘zgartirish orqali SI texnologiyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ortib borayotgan xavf manbai ekanligi taklif etilgan.

4) 57-bob quyidagi mazmundagi 1004¹-modda bilan to‘ldirilsin:

“1004¹-modda “Robot agentning xatti-harakatlari uchun javobgarlik.

Robot-agentning egasi robot-agentning xatti-harakatlari uchun robot-agentga egalik qilish va (yoki) foydalanishga o‘tgan vaqtdan boshlab o‘z mulki doirasida javobgar bo‘ladi.

Robot-agentning javobgarligi uning mulkiy huquqiy tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda (shu jumladan, boshqalar uchun oshiqcha xavf tug‘diradigan faoliyat bilan zarar yetkazilgan taqdirda) robot-agentning xatti-harakati uchun javobgarlik uning egasiga subsidiar tartibda yuklanadi.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan har qanday holatda robot-agentning egasi va (yoki) foydalanuvchisi robot-agentning xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘ladi, ular javobgarlik robot-agentni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va (yoki) texnik xizmat ko‘rsatishni amalga oshirgan shaxsning harakatlari natijasida robot-agent tomonidan sodir etilganligini isbotlagan holatlar bundan mustasno.

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, robot-agentni ishlab chiqqan, yaratgan va (yoki) unga xizmat ko‘rsatgan shaxs aybining mavjudligidan qat’i nazar, ushbu moddaga muvofiq javobgar bo‘ladi”.

5) 59-bob quyidagi mazmundagi 1033¹-modda bilan to‘ldirilsin:

“1033¹-modda. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlariga shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlar.

Sun’iy intellektning dasturiy-apparat va dasturiy vositalari majmuasi tomonidan avtonom tarzda yaratilgan intellektual faoliyat natijasiga bo‘lgan huquqlar, ya’ni insonning sezilarli shaxsiy ijodiy hissasi bo‘lmagan taqdirda, quyidagilarga tegishlidir:

1) ushbu sun’iy intellekt kompleksini ishlab chiqaruvchisiga;

2) sun’iy intellekt dasturiy-texnika kompleksini ishlab chiqaruvchisi bilan ushbu kompleksdan yoki uning imkoniyatlaridan foydalanish uchun tegishli litsenziya shartnomasini tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxsga;

3) agar sun’iy intellektning dasturiy-apparat kompleksini ishlab chiqaruvchisi, undan foydalanish uchun ochiq litsenziya taqdim etgan bo‘lsa, ushbu natijani yaratish uchun sezilarli darajada ijodiy hissa qo‘shgan fuqaroga yoki bunday fuqaro bo‘lmagan taqdirda – umumjamoat mulki hisoblanadi”.

21. O‘zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozlariga ko‘ra raqobatbardosh sun’iy intellekt texnologiyalari yetarli darajada rivojlanmagan va foydalanilmagan taqdirda mamlakatning ilmiy va texnologik rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish sekinlashadi, bu esa uning keyinchalik iqtisodiy va texnologik jihatdan boshqa mamlakatlardan orqada qolishiga olib keladi. Shu sababli ***Sun’iy intellektni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqish*** taklifi ilgari surilgan.

22. Xorijiy tajribadan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasida ham ***“Sun’iy intellekt tizimi to‘g‘risida”***gi alohida qonunni qabul qilish maqsadga muvofiq ekanligi asoslantirib berilgan.

Jumladan, mazkur qonunda quyidagi masalalar qamrab olinishi qayd etilgan:

SI tushunchasi;

SI dan foydalanish asoslari va prinsiplari;

SI maqomi, huquq va majburiyatlari;

SI ishlab chiqaruvchisi maqomi, huquq va majburiyatlari;

SI egasi (mulkdori) maqomi, huquq va majburiyatlari;

SI mulkiy daxlsizligi va mustaqilligi kafolatlari;

SI foydalanish doirasi, huquqiy mexanizmi;

SI bevosita javobgarligi mexanizmi;

SI uchinchi shaxslar oldidagi bilvosita javobgarligi;

SI yetkazgan zarar uchun subsidiar va solidar javobgarlik;

SI yetkazgan zarar uchun tegishli kompensatsiyani to'lash tartibi;

SI ga oid boshqa masalalar.

23. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonuniga yangi 46¹-moddani kiritish taklif etilgan:

46¹-modda. Fuqarolarning sog'lig'iga tibbiy amaliyot davomida qo'llangan sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zararni qoplash

Robot-assistent xatti-harakatlari uchun javobgarlik robot-assistentdan foydalanayotgan shifokor (shifokorlar brigadasi) zimmasida bo'ladi.

Robot-assistentning javobgarligi uning shifokorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hollarda (shu jumladan, boshqalar uchun oshiqcha xavf tug'diradigan faoliyat bilan zarar yetkazilgan taqdirda) robot-assistentning xatti-harakati uchun javobgarlik uning egasiga subsidiar tartibda yuklanadi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan har qanday holatda robot-assistentning egasi va (yoki) foydalanuvchisi robot-assistentning xatti-harakatlari uchun javobgar bo'ladi, zarar yetkazish holati robot-assistentni yaratish, ishlab chiqarish va (yoki) texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirgan shaxsning harakatlari natijasida robot-assistent tomonidan sodir etilganligi isbotlangan holatlar bundan mustasno.

24. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasini quyidagi band bilan to'ldirish taklif qilingan:

"Sun'iy intellekt atrofidagi jarayonlarni va atrof-muhitni (vaziyatni), munosabatlarni idrok etish (tan olish, tahlil qilish va baholash) va modellashtirish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va amalga oshirish, o'z xatti-harakatlari va tajribasini tahlil qilish va tushunishdan iborat kognitiv dasturga ega sun'iy axborot-kommunikatsiya (elektron, virtual, elektron-mexanik, bioelektron-mexanik yoki gibridd) tizimidir".

25. Sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan yoki to'liq avtonom holatda ishlaydigan sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtironing patent va huquqiy himoyasi sohasidagi huquqiy yechimlar quyidagi modellar doirasida amalga oshirilishi asoslab berilgan:

- ixtironing patent va huquqiy muhofazasi umumiy tartibda va umumiy shartlarda, bunda patent-huquqiy muhofaza qilish muddati sezilarli darajada qisqartiriladi;

- ixtirolarning patent va huquqiy muhofazasini to'liq taqiqlash, bunday ixtirolarni jamoat mulkiga berish yoki ochiq litsenziya rejimini belgilash;

- ixtironi patent va huquqiy himoya qilish, bunday huquqlarni boshqarish vakolatlarini maxsus tashkil etilgan davlat fondiga o'tkazish.

26. O‘zbekiston Respublikasining “**Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida**”gi qonuniga quyidagi yangi moddani kiritish taklif etilgan.

41¹-modda. Bank xizmatlari va operatsiyalarida sun‘iy intellektning qo‘llanishi

Xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini bank tomonidan uzluksiz asosda amalga oshirish uchun sun‘iy intellekt qo‘llanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bank xizmatlari va operatsiyalarining ayrim turlarini sun‘iy intellekt o‘ziga mustaqil qaror qabul qilish huquqini topshirishga faqat bu haqda mijozlarni ogohlantirgan holda yo‘l qo‘yiladi. Bu haqda bank tomonidan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini sun‘iy intellekt tizimi tomonidan amalga oshirilishi shartnomada aks ettirilishi kerak.

Bank sun‘iy intellekt tizimiga topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari bilan bog‘liq tavakkalchiliklar uchun javobgar bo‘ladi.

Xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlarini sun‘iy intellekt tizimiga topshirishda bank dastur talablariga, shu jumladan, uni qo‘llash vaqtidagi nosozliklar yoki topshirilgan xizmatlar va operatsiyalarning ayrim turlari yuzasidan axborot taqdim etish bo‘yicha talablariga javob berishi kerak.

27. O‘zbekiston Respublikasi “**Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida**”gi qonunining 26-moddasini quyidagi band bilan to‘ldirish taklifi ilgari surilgan:

sun‘iy intellekt orqali yarim avtomat yoki to‘liq avtomatlashtirilgan boshqaruvi ostida yo‘l-transport vositalari tomonidan sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisasi oqibatida tan jarohati olgan, transport vositasi va yuk shikastlangan hollarda qonunchilikda belgilangan tartibda zararning o‘rni qoplanishi.

28. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-dekabrda 318-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat notariusi tomonidan o‘z kasb majburiyatlari buzilishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 7-bandini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilingan.

7. Adliya boshqarmasi tomonidan qoplangan summa keyinchalik aksincha talab (regress) tartibida notariusdan undirib olinishi kerak, ***sun‘iy intellekt tizimi xatoligi tufayli zarar yetkazilishi holatlari bundan mustasno.***

29. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida”gi Nizomning 2-bandini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan.

2. Korxonada va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek, xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta‘siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, ***sun‘iy intellekt tizimlari***, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek, tabiiy ofatlar (zilzilalar, o‘pirilishlar, suv toshqinlari, to‘fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

Ushbu nizomning IV bobini 6¹-band bilan to‘ldirish taklif etilgan

6¹. Sun'iy intellekt tizimlari harakati oqibatida inson o'limi kelib chiqqan baxtsiz hodisa, sun'iy intellekt tizimini ishlab chiqargan dastur yaratuvchisi, ishlab chiqaruvchining vakillari ishtirokida ko'rib chiqiladi.

30. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 378-moddasini quyidagi band bilan to'ldirish taklif etilgan.

19²) soliq to'lovchi tomonidan ijtimoiy sohada (tibbiyot, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy xizmat va boshqa) sun'iy intellekt tizimini qo'llashdan olingan daromadlari.

31. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 297-moddasini quyidagi band bilan to'ldirish taklif etilgan.

Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi:

13¹) ijtimoiy sohada (tibbiyot, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy xizmat va boshqa) foydalaniladigan, O'zbekiston Respublikasida o'xshashi ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan sun'iy intellekt texnologiyalariga.

III. Amaliy taklif va xulosalar:

32. SIDan yetkazilgan zararni hisoblashda, zararni hisoblash bilan bog'liq qiyinchiliklarni hisobga olgan holda va intellektual mulk huquqlari yoki shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining o'ziga xosligini hisobga olgan holda, umumiy jihatdan, Discounted Cash Flow Method (DCF) usuli va Financial Indicative Running Royalty Model (FIRRM) kabi zararni hisoblashning iqtisodiy usullarini ko'rib chiqish lozim.

Bu usullar orqali, SI vositalari tomonidan intellektual mulk huquqi va shaxsiy ma'lumotdan qonunga xilof yoki noto'g'ri foydalanilganda, yetkazilgan zarar esa ko'zga ko'rinmaganligi bois uni hisoblash qiyin bo'lganida, ma'lum "qat'iy" (fiksatsiya qilingan) zarar summalari belgilanishi mumkin (misol uchun, shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi – 10 mln. sum, tibbiy yoki boshqa sir buzilishi – 15 mln. sum va h.k.). Kelajakda ushbu tartibni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va sud amaliyotida aynan SI bilan bog'liq zararlarni hisoblab chiqishda qo'llash taklif etiladi.

33. SI qo'llash sohalari sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Avtomatlashtirilgan yuridik maslahat usullari, masalan, hujjatlarni avtomatik tahlil qilish. Ko'p sonli hujjatlar tahlili shifrlangan natijalarini elektron shaklda saqlash, masofaviy tahlil va maslahat amaliyotini joriy etish.

Nutqni aniqlash va tabiiy tilni tushunish tizimlari yuristga ham, fuqaroga ham sezilarli yordam berishi mumkin. Oddiy nutq tanishdan boshlab va uni yuridik axborot tizimlari bilan aloqa qilish, Call-markaz yoki ovozli yordamchi bilan bog'lash uchun yanada rivojlangan interface sifatini oshirish, ovozni matnga aylantirish, chet ellik fuqaroning murojaatini (hujjatini) avtomatik tarjima qilish, nutq sintezi kabi g'oyalar oldinda kutilmoqda.

Hujjatlarni tahlil qilish va ish bo'yicha yuridik yakunni bashorat qilish tizimlari ham to'liq hal qilinadigan SI vazifalari bo'lib, ular sezilarli yordam ko'rsatishi mumkin. Masalan, qonunchilikdagi o'zgarishlarni operativ kuzatib borish va tahlil qilish yuridik idoralarga murojaat qiladigan aholi soni va ehtiyojini tezda bashoratlash imkonini beradi.

Axborotni avtomatik tasniflash va qiyoslash tizimlari fuqaro haqidagi turli axborot tizimlarida turli shakllarda bo'lgan ma'lumotlarni bog'lashga yordam beradi. Masalan, ma'lumotlarning aniq, turli xil tafsilotlar bilan tasvirlangan yaxlit elektron shaklini yaratish mumkin bo'ladi. Marketing ma'lumotlarni tezda olish uchun ijtimoiy tarmoqlar, Internet portallari tarkibini mashinaviy tahlil qilish istiqbolli texnologiyadir.

Aholiga avtomatlashtirilgan maslahat chatbotlari fuqarolarni yuridik bilimlar bilan tanishtirishda va belgilangan huquq-tartibotga rioya qilishda katta yordam berishi mumkin. Chatbotlar allaqachon odatiy savollarga qanday javob berishni, oddiy vaziyatlarda yurish-turishni taklif qilishni, fuqaroni advokat bilan bog'lashni va hokazolarni amalga oshirishi mumkin.

34. Muallif tomonidan nizolarni SI vositasi yordamida hal etish mumkinligi tahlil etilganda quyidagi xulosalarga kelingan. Sud hokimiyati organlarida inson omili bilan bog'liq ish yuklamasi keskin kamayadi. Sun'iy intellekt sudga taraf bo'lib ishtirok etayotgan shaxslar hamda boshqa sud jarayoni ishtirokchilariga, shuningdek, sudyalarga ma'lumotlarni tartibga solishda yordam beradi hamda sud ishlarini ko'rib chiqish natijalarini topish va baholash uchun sifatli vositaga aylanadi. Da'vogarga sudga da'vo qilingan arizaning muvaffaqiyatli bo'lish ehtimolini taxmin qilish va shu asosda ishni sudga bermasdan hal etish imkonini beradi

**DIGITAL SCIENTIFIC COUNCIL No DSc.07/30.12. 2019.Yu.22.01
FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

BOZAROV SARDOR SOKHIBJONOVICH

**LEGAL LIABILITY IN THE FRAMEWORK OF ARTIFICIAL
INTELLIGENCE**

12.00.03 – Civil law. Business law.
Family law. Private international law

**Doctoral (DSc) dissertation abstract
on legal sciences**

Tashkent-2023

The theme of the doctoral dissertation (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2021.4.DSc/Yu181.

The dissertation has been prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) and of "ZiyoNet" Information and Educational Portal (www.ziyounet.uz).

Scientific supervisor:

Gulyamov Said Saidaxrorovich,
Doctor of Science in Law, Professor

Official opponents:

Samarhodjaev Botir Bilyalovich,
Doctor of Science in Law, Professor

Aminjonova Matluba Ahmedovna,
Doctor of Science in Law, Associate professor

Hamroqulov Bahodir Mamasharivovich,
Doctor of Science in Law

Leading organization:

Customs Institute of State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan


The defense of the dissertation will take place on March 16, 2023, at 10.00 at the meeting of the Scientific Council №. DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 at Tashkent State University of Law (Address: 100047, Tashkent city, Sayilgokh street 35. Phone: (99871) 233-66-36; Fax: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).


The doctoral dissertation (DSc) is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under № 1119). (Address: 100047, Tashkent city, Sayilgokh street, 35. Phone: (99871) 233-66-36.


The abstract of the dissertation was distributed on February 28, 2023.

(Registration № 25 from February 28, 2023)




I.R. Rustambekov
Chairman of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor


D.Y. Khabibullayev
Acting secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Candidate of Juridical Science, Professor


N.F. Imomov
Deputy Chairman of Scientific seminar under the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

INTRODUCTION (abstract of the doctoral dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. Advancements in the field of Artificial Intelligence (hereinafter - AI) in the world, intellectual property rights in relation to AI and the legal nature of these products, in particular, the issues of legal responsibility, have already become a serious global issue. For instance, in 2015 and 2018, Tesla's AI-based autopilot caused car accidents that resulted in human deaths. Google Self-Driving Car had 11 accidents resulting in damage¹. Similarly, in 2015, the action of the AI manipulator robot caused the death of a worker at the Volkswagen automobile plant², robot nurses reminding patients to take their medicines fail to ensure that the medicines are actually taken, which may lead to the patient's death³. Due to the fact that the issues of legal responsibility in the field of AI cannot match the intensity of the technological revolution, which is advancing at a rapid pace, products in the field of AI and similar modern technologies (smart city, smart contract, digital economy, blockchain, etc.) the challenges and relations arising in production create the need for a complete revision of traditional legal norms and institutions.

It is considered a priority task to researching the phenomenon of AI in the world, its normative order, creation, development, programming, introduction, application of AI technologies and programs, smart learning systems, smart-contract and other similar AI products, their legal nature, specific aspects, legal liability issues, and also carry out scientific analysis regarding the legal status of AI, legal entity, legal perspective of the concept of an electronic person.

In recent years, well-planned measures have been implemented in our country to introduce artificial intelligence systems. In particular, in the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" specific tasks for the development of the "Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies in 2023-2030" are defined for the successful implementation of artificial intelligence in our country, and they note the need to further accelerate digitalization processes in the republic. In addition, the Strategy of New Uzbekistan calls for the introduction of modern information, including the introduction of artificial intelligence technologies to combat corruption, the development of necessary mechanisms for the digitalization of the enforcement system and the introduction of artificial intelligence technologies indicates urgent need for scientific research based on the needs of gradual absorption of artificial intelligence systems to legal basis of judicial sphere.

To a certain extent, this research will definitely serve to implement the tasks defined in the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PF-60, January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Decree No. PQ-4996 on February 17, 2021 "On measures to

¹Dan Moren, People Keep Crashing Into Google's Self Driving Cars (2015), <<http://www.popsoci.com/people-keep-crashing-googles-self-driving-cars>> accessed 13 June 2015.

² Robot Kills worker at Volkswagen plant in Germany // The Guardian. URL: <https://www.theguardian.com/world/2015/jul/02/robot-kills-worker-at-volkswagenplant-in-germany> (дата обращения: 10.05.2020).

provide conditions for the rapid introduction of artificial intelligence technologies”, the Presidential Decree No. PQ-5234 on August 26, 2021 “On measures to introduce a special regime for the use of artificial intelligence technologies”, the Decree No. PF-6198 on April 1, 2021 “On improving the state management system for the development of scientific and innovative activities”, the October 29, 2020 Decree No. PF-6097 “On approving the concept of the development of science until 2030”, the July 6, 2022 Decree No. PF-165 “On the development of the Republic of Uzbekistan in 2022-2026, the October 5, 2020 Decree No. PF-6079 “On Approval and measures of effective realization of the Innovative Development Strategy named “Digital Uzbekistan-2030”” and other normative legal documents related to the field.

Compliance of the research with the main priorities of the advancement of local science and technology. The research of the dissertation has been carried out according to “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state”, the priority direction of the development of republican science and technology.

